


“TASDIQLAYMAN”
“O‘ztransgaz” AJ huzuridagi
jamoatchilik kengashi raisi


L.Sharipova
2026-yil 7-iyul

“O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati huzuridagi jamoatchilik kengashining
3-sonli BAYONI

2026-yil 7-iyul

Toshkent v.

KUN TARTIBI:

“O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy ko‘rsatkichlari, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda bu borada amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

- Yig‘ilishda raislik qildi:** - L.Sharipova – “O‘ztransgaz” AJ huzuridagi jamoatchilik kengashining raisi
- Qatnashdilar:** - Jamoatchilik kengashi a‘zolari: Sh.Boboyev, A.Umarov, N.Ziyodullayeva, M.Magdiyeva va M.Kosimov
- Taklif kilanganlar:** - J.Abdullaev, Yo.Nurnazarov.

“O‘ztransgaz” AJ jamoatchilik kengashining 2026-yil II-chorakda amalga oshirgan ishlari to‘g‘risidagi yig‘ilishi Jamoatchilik kengashining raisi L.Sharipova tomonidan ochiq deb e‘lon qilindi.

L.Sharipova “O‘ztransgaz” AJning moliyaviy ko‘rsatkichlari haqida ma‘lumot berish uchun so‘zni Iqtisodiy tahlil bo‘limi boshlig‘i J.Abdullaevga berdi.

J.Abdullaev o‘z nutqida:

“O‘ztransgaz” AJ o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarga muvofiq magistral gaz quvurlari tizimi orqali iste‘molchilarga tabiiy gazni yetkazib berish va tranzit xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda.

Jumladan, 2025-yilda respublikaning ichki tabiiy gaz ta'minoti uchun iste'molchilarning talabidan kelib chiqib 38,3 mlrd. kub.m. tabiiy gaz hajmlari tashib berilgan va 621,8 mln. dollar qiymatidagi 36 748,9 mln. kub metr tabiiy gaz tranziti xizmati amalga oshirilgan.

Shunga ko'ra, Jamiyat tomonidan amalga oshirilgan ishlar natijasida quyidagi moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishilgan:

- moliyaviy natija 5 847,0 mlrd. so'm sof foydani tashkil qilib, biznes-rejaga nisbatan 230,3 mlrd. so'mga oshgan.

- sof tushum 14 187,5 mlrd. so'mni tashkil etib, reja ko'rsatkichiga nisbatan 3 569,6 mlrd. so'mga yoki 20,1 foizga kamaygan;

- sotilgan mahsulotlar tannarxi 7 462,8 mlrd. so'mni tashkil etib, rejaga nisbatan 759,5 mlrd. so'mga yoki 9,2 foizga kamaygan.

- davr xarajatlari 697,3 mlrd. so'mni tashkil qilgan va rejaga nisbatan 229,7 mlrd. so'mga yoki 24,8 foizga kamaygan;

- moliyaviy xarajatlar 1 672,8 mlrd. so'mni tashkil etib, rejaga nisbatan 327,1 mlrd. so'mga yoki 16,4 foizga kamaygan.

2025-yilda 2 344,0 mlrd. so'm moliyaviy daromad olingan bo'lib, ushbu daromadlarning asosiy qismi 1 933,6 mlrd. so'm valyuta kursi o'zgarishi farqlaridan olinadigan daromadlar hissasiga to'g'ri keladi.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 101,18 mlrd so'mga yoki 100,1 foizga bajarilgan va 2024-yilga nisbatan o'sish sur'ati 100,3 foiz tashkil etgan.

2026-yilning birinchi yarim yilligida Investitsiya dasturi doirasida "O'ztransgaz" AJ tomonidan 145 mln dollar investitsiya mablag'lari o'zlashtirildi.

Shuningdek, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 47,95 mlrd so'mga yoki 99,8 foizga bajarilishi kutilmoqda.

O'tgan davrda 20 636,6 mln kub metr yoki 305,4 mln dollar qiymatdagi tabiiy gaz tranziti xizmati ko'rsatilib, budjetga 490,1 mlrd so'm to'lovlar amalga oshirilishi, shuningdek moliyaviy natija 887,1 mlrd so'm sof foydani tashkil etishi va belgilangan rejalar bajarilishi kutilmoqda.

2026-yilda ichki iste'molchilarga 37,3 mlrd. kub.m. tabiiy gaz hajmlarini yetkazib berish;

- sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 101,7 mlrd so'mga yetkazish.
- 620,0 mln dollarlik tabiiy gazning tranzit xizmatlarini amalga oshirish.
- investitsiya loyihalarini doirasida 355,5 mln dollar mablag'larni o'zlashtirish.
- 15,8 mln dollarlik import hajmini qisqartirish.
- 415,0 mlrd so'm budjetga to'lovlarni amalga oshirish.
- 1 725,0 mlrd so'mlik sof foydaga erishish va boshqa vazifalar maqsad qilingan.

“O'ztransgaz” AJ o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarga erishish uchun barcha imkoniyat va salohiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tdi.

Kun tartibida belgilangan masalalar bo'yicha jamoatchilik kengashi a'zolar takliflari va mulohazalari tinglandi.

Personal bilan ishlash departamenti boshlig'i Sh.Boboyev so'zga chiqib, Jamiyatda tabiiy gaz yo'qotishlarini kamaytirish, magistral gaz quvurlarining ishonchli va uzluksiz ishlashini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berdi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda zamonaviy nazorat va monitoring tizimlari joriy etilgani, raqamli texnologiyalar hamda sun'iy intellekt (SI) yechimlaridan foydalanilayotgani natijasida tabiiy gaz yo'qotishlari deyarli kuzatilmayapti. Sun'iy intellekt asosidagi tahlil tizimlari gaz tarmoqlaridagi ehtimoliy sizib chiqish holatlarini tezkor aniqlash imkonini bermogda. Aniqlangan nosozliklar mutaxassislar tomonidan qisqa muddatlarda bartaraf etilib, gaz uzatish tizimining barqaror ishlashi ta'minlanmogda.

Shuningdek, Sh.Boboyev Jamiyatning moliyaviy ko'rsatkichlari barqaror ijobiy dinamikaga ega ekanligini, moliyaviy intizomni mustahkamlash, xarajatlarni optimallashtirish, investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirish hamda daromadlarni oshirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilayotganini ta'kidladi. Mazkur chora-tadbirlar Jamiyatning moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash va belgilangan strategik ko'rsatkichlarga erishishga xizmat qilayotganini qayd etdi.

Jamoatchilik kengash a'zosi UzA jurnalisti N.Ziyodullaeva jamiyatda Davlat tilida ish yuritilishi bo'yicha bergan savoliga boshqaruv raisining ma'naviyat va davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchisi A.Umarov so'zga chiqib, “O'ztransgaz” aksiyadorlik jamiyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5850-son Farmoni, O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-yanvardagi "Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'grisida"gi 34-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 16-martdagi "Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish ob'ektlariga nom berishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida"gi 144-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida "O'ztransgaz" aksiyadorlik jamiyatining 2021-yil 5 iyuldagi 119-son buyrug'i qabul qilinib, jamiyatning 65-ta gaz taqsimlash stantsiyalari nomlarini Davlat titida qayta nomlanganligi hamda jamiyatda ish yuritish hujjatlari to'liq Davlat titlida yuritilayotganligi haqida ma'lumot berdi.

Kun tartibida belgilangan masalalar bo'yicha jamoatchilik kengashi a'zolari taklif va mulohazalari tinglanganidan so'ng, Jamoatchilik kengash raisi L.Sharipova muhokama va takliflarni inobatga olgan holda "O'ztransgaz" aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy ko'rsatkichlari, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda bu borada amalga oshirilgan ishlar ijobiy bajarilganligi tasdiqlanishini so'radi. Kengash a'zolari bir ovozdan ish rejani ijobiy bajarilganligini tasdiqlashdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Jamoyatchilik kengashining 2026-yil uchun belgilangan ish rejasining kelgusidagi choraklarda belgilangan yo'nalishlar ijrosiga alohida e'tibor berilishi inobatga olinsin.

Bayonnomani rasmiylashtirdi

A.Umarov